https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Farg‘ona davlat universiteti

Maxsus pedagogika: surdopedagogika yo‘nalishi talabasi

Sulaymonova Shahnoza Alisher qizi

YAKKA MASHG‘ULOTLARDA ESHITUV IDROKINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada eshituv nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan yakka mashg‘ulotlar orqali eshituv idrokini rivojlantirishning samarali usullari ko‘rib chiqiladi. Mashg‘ulotlar metodikasi, multimodal yondashuvlar va bolalarning kognitiv rivojlanishiga ta’siri tahlil qilinadi.

Аннотация: В статье рассматриваются эффективные методы развития слухового восприятия у детей с нарушением слуха через индивидуальные занятия. Анализируются методики занятий, мультимодальный подход и их влияние на когнитивное развитие ребенка.

Annotation: This article explores effective methods for developing auditory perception in children with hearing impairments through individual sessions. It analyzes session techniques, multimodal approaches, and their impact on children's cognitive development.

Kalit so‘zlar: eshituv idroki, yakka mashg‘ulot, multimodal yondashuv, logopedik mashqlar.

Ключевые слова: слуховое восприятие, индивидуальные занятия, мультимодальный подход, логопедические упражнения.

Keywords: auditory perception, individual sessions, multimodal approach, speech therapy exercises.

Eshituv idroki bolalarning nutqiy va kognitiv rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, eshitishda muammosi bo‘lgan bolalar bilan ishlashda yakka tartibdagi mashg‘ulotlar juda samarali hisoblanadi.Yakka mashg‘ulotlar har bir bolaning

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

individual rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda olib boriladi. Eshituv idrokini rivojlantirishda quyidagi metodlardan foydalaniladi:

✓Akustik farqlash mashqlari – tovushlarning farqini sezish.

✓Logopedik o‘yinlar – tovushni anglash va to‘g‘ri talaffuz qilish.

✓Vizual ko‘makchi vositalar – tovush manbaini aniqlashda yordam beruvchi materiallar.

Bu metodlardan yakka mashg‘ulotlar jarayonida foydalaniladi. Akustik farqlash mashqlari nutqiy va nonutqiy tovushlarning farqini sezishda foydalaniladi. Nutqiy tovushlar — bu odam og‘zaki nutq jarayonida chiqaradigan, ma'no ifodalash yoki muloqot uchun ishlatiladigan fonemalar, ya’ni tilga oid tovushlardir. Ular so‘z va gaplarni shakllantirishda ishtirok etadi va talaffuz orqali eshitiladi.

Nutqiy tovushlarga misollar:

Unli tovushlar (vokal tovushlar):

A – masalan: "aka"

E – masalan: "dengiz"

I – masalan: "bilim"

O – masalan: "ota"

U – masalan: "qush"

Undosh tovushlar (konsonant tovushlar):

B – masalan: "bola"

D – masalan: "daraxt"

G – masalan: "gul"

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

K – masalan: "kitob"

L – masalan: "lolazor"

M – masalan: "maktab"

So‘z va gap shaklida:

So‘zlar: "ona", "kitob", "do‘st", "yaxshi", "men", "boraman"

Gaplar: "Men maktabga bordim.", "U o‘qiyapti."

Nutqiy tovushlar talaffuz, fonetika, fonologiya kabi sohalarda o‘rganiladi va logopedik mashg‘ulotlarda talaffuzni to‘g‘rilash, so‘z boyligini oshirish, gap tuzish va eshitish asosida farqlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Nonutqiy tovushlar (yoki nutqqa oid bo'lmagan tovushlar) — bu odamlar yoki atrof-muhit tomonidan chiqariladigan, lekin so‘z yoki gap shaklida bo‘lmagan tovushlardir. Ular eshituv idrokini rivojlantirish mashg‘ulotlarida juda muhim ahamiyatga ega, ayniqsa, tovushlarni ajratish, tanib olish va ularni farqlashni o‘rgatishda qo‘llaniladi.

Nonutqiy tovushlarga misollar:

Atrof-muhit tovushlari, soatning “tiktak” tovushi, eshik yopilishi yoki ochilishi, shamolning shitirlashi, yomg‘ir tomchilari, suvning shildirashi, mashina dvigateli tovushi, signal tovushi (masalan, mashina signali yoki ogohlantirish signali), telefon jiringlashi

Hayvon tovushlari:

Itning uvillashi yoki vovullashi;

Mushukning miyovlashi;

Qushlarning sayrash tovushi;

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Sigirning “mo‘”lashi.

Odam tomonidan chiqariladigan nonutqiy tovushlar:

Yo‘talish;

Aksirish;

Qorinning g‘uldirashi;

Qo‘rqib qichqirish;

Kulgi;

Xo‘rsinish;

Qarsak.

Bu tovushlar bilan ishlash eshitish qobiliyatini yaxshilashga yordam beradi, chunki ular bolaga atrof-muhitdagi signallarni anglash, ularni farqlash va ularga munosib reaksiya bildirishni o‘rgatadi.

Yakka mashg‘ulotlarda logoped pedagog har bir bolaning nutq rivojlanishi darajasiga, nuqson turiga va ehtiyojiga qarab mos mashqlarni tanlaydi. Bu esa mashg‘ulotning samaradorligini oshiradi. Logopedik mashqlar orqali bola nutq tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qilishni, tovushlarni eshitish va farqlashni o‘rganadi. Ayniqsa, eshitishida muammo bo‘lgan bolalarda bu mashqlar muhimdir. Artikulyatsion mashqlar til, lab, jag‘ kabi nutq organlarining harakatlarini muvofiqlashtiradi, ularni mashq qiladi va talaffuzni aniqlashtiradi. Mashqlar orqali bola yangi so‘zlar o‘rganadi, ularni bog‘laydi, gaplar tuzadi va bu orqali muloqot ko‘nikmalari rivojlanadi.

Yakka mashg‘ulotlar ijobiy muhitda o‘tadi, bolaning muvaffaqiyatlari e’tirof etiladi, bu esa uning ijtimoiylashuvi va o‘zini erkin tutishiga hissa qo‘shadi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Yakka mashg‘ulotlarda o‘quvchi bilan ish olib borishdan oldin uning kayfiyati hisobga olinadi, kayfiyatni yaxshilab olgach u bilan nafas tovushlari va artikulyatsion mashqlar bajariladi. O‘quvchi artikulyatsion mashqlarni o‘qituvchi yordamida bajaradi va o‘zi rasmga qarab ketma-ketlikda bajaradi. O‘qituvchi-logoped uning harakatlarini kuzatib boradi. Mana bu rasmda artikulyatsion mashqlar berilgan:



Artikulyatsion mashqlar:

"Qo‘ng‘iroq" mashqi – tilni yuqoriga va pastga harakatlantirish.

"Otcha" mashqi – tilni tanglayga urib tovush chiqarish.

"Til cho‘mich" – tilni keng ochib lab ustiga qo‘yish.

Eshitishda qiyinchilikka duch keladigan bolalar uchun tovushni faqat eshitish orqali qabul qilish qiyin bo‘lishi mumkin. Vizual ko‘maklar – rasm, piktogramma, imo-ishora, harf, rangli kartochkalar – tovush ma’nosini ko‘rish orqali tushunishga yordam beradi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Masalan:

"S" tovushini o‘rgatishda ilon rasmi yordamida tushuntirish.

"M" tovushi uchun mushuk rasmidan foydalanish.

Vizual materiallar bolaning e’tiborini tortadi va uni faol ishtirok etishga undaydi. Bu esa eshituv faoliyatiga nisbatan barqarorlik va qiziqishni oshiradi.Vizual vositalar tovushlar orasidagi farqni aniqroq ko‘rsatishga yordam beradi, ayniqsa, fonematik eshituvni rivojlantirishda.

Masalan:

"B" va "P" tovushlari uchun turli rangli kartochkalar ishlatiladi.

Har bir tovush uchun belgi (simvol) tanlab qo‘yiladi (masalan: "S" — ilon rasmi, "R" — mashina rasmi).

Eshituv, vizual va hatto taktil sezgilar birgalikda ishlatiladi. Bu bolada ko‘p sezgi orqali o‘rganish refleksini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мамедова Н.Ж. (2020). Logopedik mashg‘ulotlarda eshituv idrokini rivojlantirish metodikasi. Toshkent: O‘zbekiston pedagogika nashriyoti.
2. Xolboyeva M., Yuldasheva M. (2021). Logopediya va defektologiyada innovatsion yondashuvlar. Toshkent: TDPU nashriyoti.
3. Hasanova D.T. (2019). Multimodal yondashuv asosida eshituv idrokini shakllantirish. "Ilm va taraqqiyot" ilmiy-amaliy jurnal, №2.
4. www.pedagog.uz
5. www.ziyonet.uz